

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



# ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol.2 N.1

2026

**International Journal of  
Contemporary Scientific  
and Technical Research**

**Volume 2 Issue 1  
2026**

**Zamonaviy ilmiy-texnik  
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

**1-son  
2026**

**Международный журнал  
современных научно-  
технических  
исследований**

**Том 2 Выпуск 1  
2026**



# MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

**Xalqaro ilmiy-elektron jurnali**

**Tahrir kengashi raisi:**

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

**Bosh muharrir:**

A.A. Abdumalikov

**Tahrir kengashi mas'ul kotibi:**

D.M. Jomurodov

**Tahririyat hay'ati:**

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

*Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.*

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

**Tahririyat manzili:**

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,  
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.

## **INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING IQTISODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI**

**Axatova Lobar Abrayqul qizi**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada zamonaviy innovatsion ta'lim muhitida talabalarining iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va samarali mexanizmlari tadqiq etilgan. Bugungi jadal globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim talabalarida iqtisodiy tafakkur, moliyaviy savodxonlik hamda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Maqolada ilg'or pedagogik texnologiyalar, keys-stadi, interaktiv metodlar va loyihaviy ta'lim imkoniyatlaridan foydalangan holda talabalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy faoliyatida iqtisodiy bilimlarni mustaqil va ijodiy qo'llay olish qobiliyatini yuzaga chiqaruvchi pedagogik shart-sharoitlar hamda innovatsion yondashuvlar yoritib berilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida talabalarining iqtisodiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqola oliy ta'lim tizimi pedagoglari, tadqiqotchilar va iqtisodiy ta'lim metodikasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion ta'lim, iqtisodiy kompetensiya, iqtisodiy tafakkur, pedagogik xususiyatlar, oliy ta'lim, moliyaviy savodxonlik, interaktiv metodlar, raqamli iqtisodiyot.

## **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ**

**Ахатова Лобар Абройкул кизи**

Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами, независимый исследователь

### **Аннотация**

В данной статье исследуются педагогико-психологические особенности и эффективные механизмы развития экономических компетенций студентов в современной инновационной образовательной среде. В условиях сегодняшней стремительной глобализации и цифровой экономики формирование экономического мышления, финансовой грамотности и предпринимательских навыков у студентов высших учебных заведений является одной из важных педагогических задач. В статье анализируются вопросы обеспечения экономической устойчивости студентов с использованием передовых педагогических технологий, кейс-стади, интерактивных методов и возможностей проектного обучения. Также освещены педагогические условия и инновационные подходы, формирующие способность будущих специалистов самостоятельно и творчески применять экономические знания в своей профессиональной деятельности. В результате проведенного исследования были разработаны практические предложения и рекомендации, направленные на повышение экономической культуры студентов. Статья предназначена для педагогов системы высшего образования, исследователей и специалистов, занимающихся методикой экономического образования.

**Ключевые слова:** инновационное образование, экономическая компетентность, экономическое мышление, педагогические особенности, высшее образование, финансовая грамотность, интерактивные методы, цифровая экономика.

## **PEDAGOGICAL FEATURES OF DEVELOPING STUDENTS' ECONOMIC COMPETENCIES IN AN INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT**

**Axatova Lobar Abrayqul qizi**

Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan, Independent Researcher

### **Abstract**

This article investigates the pedagogical and psychological characteristics and effective mechanisms for



developing students' economic competencies within a modern innovative educational environment. In today's rapid globalization and digital economy, fostering economic thinking, financial literacy, and entrepreneurial skills in higher education students is considered one of the important pedagogical tasks. The article analyzes issues of ensuring students' economic stability through the use of advanced pedagogical technologies, case studies, interactive methods, and project-based learning opportunities. It also highlights the pedagogical conditions and innovative approaches that foster the ability of future specialists to independently and creatively apply economic knowledge in their professional activities. As a result of the conducted research, practical proposals and recommendations aimed at increasing the economic culture of students have been developed. The article is intended for educators in the higher education system, researchers, and specialists engaged in the methodology of economic education.

**Keywords:** innovative education, economic competence, economic thinking, pedagogical features, higher education, financial literacy, interactive methods, digital economy.

Ayrim tadqiqotchilar “iqtisodiy bilim” tushunchasiga tavsif berishda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda shakllanishi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni alohida ta’kidlaydilar. Xususan, iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni tahlil qilish hamda iqtisodiy faoliyatni tashkil etish mahoratini hosil qilish kabi ko‘nikmalar mazkur tushunchaning tarkibiy qismlari sifatida e’tirof etiladi.

Iqtisodiy fikrlash **obyekti** sifatida iqtisodiy qonuniyatlarni o‘z ichiga oluvchi ishlab chiqarish munosabatlarining yaxlit tizimi namoyon bo‘ladi [6, 7]. Iqtisodiy fikrlash subyekti sifatida ishlab chiqarish munosabatlarini transformatsiya qiluvchi inson namoyon bo‘ladi [14]. Binobarin, iqtisodiy tafakkur jarayoni obyektiv voqelikni shunchaki in’ikos ettirish (nomlash) bilan cheklanib qolmay, balki tizimlashtirilgan bilimlar asosida optimal amaliy qarorlarni qabul qilishning fundamental asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy fikrlashning rivojlanish darajasi **subyekt**ning iqtisodiy xulq-atvori orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur xulq-atvor jamiyat iqtisodiy hayotining barcha bosqichlarida — ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste’mol jarayonlarida inson tomonidan amalga oshiriladigan maqsadli hamda izchil harakatlar majmuasini ifodalaydi.

Iqtisodiy tafakkur taraqqiyotida O‘rta Osiyo mutafakkirlari merosining o‘rni beqiyos bo‘lib, buyuk allomalarimizning nodir asarlarida ilgari surilgan iqtisodiy bilim va qarashlar o‘zining konseptual ahamiyati bilan alohida e’tiborga molikdir.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, pirovard natijada, aholining iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga nisbatan munosabati hamda mamlakat va jahon miqyosidagi transformatsiyalarning o‘z hayotiga bevosita daxldorligini anglash darajasi bilan belgilanadi.

Global miqyosdagi ijtimoiy-iqtisodiy dinamika hamda jamiyat a’zolarining iqtisodiy tafakkuri rivojlanishi o‘rtasida o‘zaro mutanosiblik kuzatilmoqda.

Ilk iqtisodiy bilimlar iqtisodiy tushunchalar to‘g‘risidagi tafakkur mahsuli bo‘lib, ular asosida real iqtisodiy kategoriyalar shakllanadi. Kuzatish usulining fundamental vazifasi jamiyatdagi mikro va makroiqtisodiy jarayonlarni statistik hamda dinamik holatda monitoring qilishdan iborat. Mazkur usul tadqiqotchidan hodisalarni muayyan maqsad yo‘nalishida idrok etishni talab etib, bunda kuzatish obyekti, vaqti hamda jarayonlarning sifat va miqdoriy tavsiflari inobatga olinadi.

Iqtisodiy omillar o‘zaro dialektik bog‘liqlik va ziddiyatli ta’sir kuchi bilan tavsiflanib, uzluksiz ravishda sifat hamda miqdoriy transformatsiyaga uchraydi. Mazkur jarayonlar ontogeneznining turli bosqichlarida o‘ziga xos mazmun va namoyon bo‘lish shakllariga ega bo‘lib, bu jarayonda eskirgan iqtisodiy tushuncha va qonuniyatlar innovatsion taraqqiyot talablariga mos keluvchi yangi tendensiyalar bilan almashinadi. Aynan ushbu dinamik o‘zgarishlarni tizimli o‘rganish ehtiyoji iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda kuzatish usulining metodologik ahamiyatini belgilab beradi.

Suhbat metodi individual yoki guruhli tartibda, keng jamoatchilik yoki alohida respondentlar bilan muloqot o‘rnatishda qo‘llaniladi. Mazkur jarayon pedagogdan yuksak kasbiy mahorat va tizimli tayyorgarlikni talab etadi. Suhbatning o‘ziga xos shakli hisoblangan intervyu metodi esa savollarning oldindan belgilangan qat’iy izchillikda va maqsadli algoritmlar asosida bayon qilinishi bilan xarakterlanadi.

Mazkur metod iqtisodiy tafakkurga mamlakatdagi makroiqtisodiy dinamika — o‘sish yoki pasayish

tendensiyalarining ta'sirini tahlil qilish hamda istiqbolli bashoratlarni shakllantirish imkonini beradi [11]. Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar (javoblar) tahliliy aniqlikni ta'minlash maqsadida audio va video formatlarda qayd etiladi [11].

Zamonaviy ijtimoiy so'rovlar nazariyasi va amaliyotida intervyu tashkil etishning turli tasnifiy usullari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- guruh bilan;
- tezkor;
- sinov.

Iqtisodiy tafakkurning shakllanganlik darajasini diagnostika qilishda integratsiyalashgan mashg'ulotlar eng samarali metod hisoblanadi. Bunday mashg'ulotlar **subyektda** tahliliy mushohada va ilmiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, nazariy noaniqliklarga oydinlik kiritadi. Iqtisodiyotni o'rganishda ilmiy abstraksiya usulidan keng foydalanilishini inobatga olsak, mazkur mashg'ulotlarning empirik hisob-kitoblarga asoslangani iqtisodiy qonun va kategoriyalarni aniq miqdoriy ko'rsatkichlar yordamida o'zlashtirishni sezilarli darajada osonlashtiradi [6].

Tahlil va sintez metodlari universal xarakterga ega bo'lishiga qaramasdan, maktabgacha yoshdagi bolalarda dastlabki iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish hamda ularning iqtisodiy tafakkurini tadqiq etishda ushbu usullarning metodologik ahamiyati beqiyosdir.

Tahlil metodi o'rganilayotgan obyektni alohida tarkibiy elementlarga ajratib, ularni ketma-ket va tizimli ravishda o'rganishga asoslanadi. Mazkur metod voqea-hodisalar mohiyatini chuqur anglash hamda ular to'g'risida yaxlit ilmiy tasavvur shakllantirish uchun obyektning ichki strukturasi batafsil va differensial tahlil qilishni taqozo etadi.

Rivojlangan mamlakatlar maktabgacha ta'lim amaliyotida iqtisodiy bilimlarni shakllantirishning innovatsion shakl va metodlari keng qo'llanilmoqda. Ular qatoriga interaktiv bahs-munozaralar, modellashtirilgan amaliy o'yinlar hamda muammoli ma'ruzalar kabi faol o'qitish texnologiyalari kirib, tarbiyalanuvchilarning bilish faolligi va iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur metodlarning pirovard maqsadi ishchi kuchini tayyorlash bo'yicha obyektiv zaruriyatni anglash hamda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Bu, o'z navbatida, maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiyotning fundamental omillari hisoblangan moddiy ne'matlar, yer, mehnat resurslari va tadbirkorlik qobiliyati to'g'risida tizimli tasavvurlarni shakllantirishga, shuningdek, axborot resurslari hamda ularning turli manbalaridan amaliy faoliyatda samarali foydalanish bo'yicha ilk ko'nikmalarni tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Falsafiy nuqtai nazardan iqtisodiy bilimlar — **subyektning** iqtisodiy faoliyatga doir dunyoqarashini shakllantirish bilan yakunlanuvchi, uzluksiz rivojlanib boruvchi gnoseologik jarayon sifatida tavsiflanadi.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

Yangi avlod ajdodlar tomonidan jamlangan iqtisodiy tushunchalar merosini o'zlashtirish barobarida, ularni zamon talablariga muvofiq rivojlantirib boradi. Ushbu jarayonda iqtisodiy bilimlar transformatsiyaga uchrab, shaxsning ichki sifatleri va ongliklik darajasiga integratsiyalashadi. Iqtisodiy fikrlash obyekti esa, eng avvalo, o'ziga xos iqtisodiy qonuniyatlar bilan o'zaro dialektik aloqadorlikda bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlari tizimi sifatida talqin etiladi. Iqtisodiy fikrlash subyekti sifatida ishlab chiqarish munosabatlarini transformatsiya qiluvchi shaxs namoyon bo'ladi. Binobarin, tafakkur jarayoni obyektiv voqelikni shunchaki in'ikos ettirish bilan cheklanmasdan, balki olingan bilimlarni maqsadli amaliy qarorlar qabul qilishga yo'naltiradi. Iqtisodiy fikrlash jarayoni doimo muayyan tushunchalar, kategoriyalar hamda qonuniyatlar tizimi asosida kechadi va o'z taraqqiyotida bir qator izchil bosqichlarni qamrab oladi.

B.T. Lixachev yosh avlodning iqtisodiy ongini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadli faoliyat konsepsiyasini asoslab, «iqtisodiy ta'lim» tushunchasining mohiyatini bolalar faoliyati kontekstida yoritish hamda uni amaliyotga tatbiq etish zarurligini ta'kidlaydi. Olimning ta'kidlashicha, fundamental iqtisodiy kategoriyalarni o'zlashtirish kognitiv faoliyat mahsuli bo'lib, bolani iqtisodiy jarayonlarga jalb etish hamda mehnatning mohiyatini o'rganish ularda iqtisodiy to'siqlarni yengib o'tish bo'yicha individual ko'nikmalarni shakllantiradi [5].

Bolada ishbilarmonlik fazilatlarining shakllanishi motivatsiyaning namoyon bo'lish darajasi bilan

belgilanadi. Shaxsiy sifatlar va ijobiy xislatlar qanchalik tizimli rivojlangan bo'lsa, tarbiyalanuvchining umumiy salohiyati ham shunchalik yuqori ko'rsatkichga ega bo'ladi. O. Musurmonovning fikriga ko'ra, mazkur jarayon subyektning ijtimoiy talablarga nisbatan sezgirligiga hamda uning ijtimoiy xulq-atvor normalari tashuvchisi sifatidagi faolligiga bevosita bog'liqdir [7].

E. G'oziyevning qayd etishicha, iqtisodiy tushuncha va kategoriyalarni o'zlashtirish jarayoni bolaning kognitiv imkoniyatlari, xususan, xotira rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, olti yoshga kelib ushbu mnemik jarayonlar sezilarli darajada faollashadi [4].

D. Abdurahimovning fikriga ko'ra, iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirishda nutq madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda iqtisodiy terminologiyaning faol qo'llanilishi natijasida bolalar lug'at boyligi yangi leksik birliklar hisobiga kengayadi. Umumlashtiruvchi so'zlar va murakkab sintaktik konstruksiyalarning ko'payishi bolalarda verbal-mantiqiy tafakkur shakllanayotganligidan dalolat beradi [1].

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

### **1. Iqtisodiy bilimlar va qadriyatlar transformatsiyasining tarixiy ildizlari.**

Mamlakatimizda iqtisodiy tafakkurning shakllanishi va uni yosh avlodga yetkazish an'analari chuqur tarixiy va ma'naviy poydevorga ega. «**Avesto**» bitiklari, **Muqaddas Qur'oni Karim** oyatlari hamda **Hadisi sharif**larda ilgari surilgan iqtisodiy-axloqiy qadriyatlar bugungi kunda ham o'zining metodologik ahamiyatini yo'qotmagan.

«**Avesto**» falsafasi: Insoniyat farovonligining asosi bo'lgan dehqonchilik, chorvachilik va bog'dorchilik bilan mashg'ul bo'lish oliy fazilat sanaladi. Shu bilan birga, ekologik muvozanatni saqlash — yer, suv va havoni bulg'amaslik bosh mezon sifatida talqin etiladi [3].

**Islom iqtisodiy ta'limoti:** Iqtisodiy munosabatlarda halollik, o'zganing mulkiga xiyonat qilmaslik, savdo-sotiqda adolat va sudxo'rlikdan (**ribo**) tiyilish qat'iy talab etiladi. Yolg'onchilik, o'g'rilik va mehnatsiz daromad orttirish kabi illatlar og'ir gunoh va ijtimoiy jinoyat sifatida qoralanadi.

**Muvozanat mezoni:** Islom ta'limotida tejamkorlik ma'naviy poklik va iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu boradagi «**Yenglar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofgarchilikka yo'l qo'ymanglar**» degan o'git bugungi kunning ratsional iste'mol madaniyati bilan hamohangdir.

Zamonaviy moliya tizimida ommalashayotgan **Islom moliyasi** shariatning to'rt asosi (**Qur'oni Karim**, Sunnat, Ijmo va Qiyos) hamda islom huquqiga (**fiqh**) tayanadi. Tizimning fundamental asosi — **ribo** (sudxo'rlik) va **g'arar** (shartnomadagi noaniqlik va asossiz tavakkalchilik)ning qat'iy taqiqlanganligidir. Barcha operatsiyalar real iqtisodiy aktivlarga tayanishi shart hamda inson ma'naviyati va salomatligiga zarar keltiruvchi sohalarini (qimor, alkogol, tamaki) moliyalashtirish taqiqlanadi.

Jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlashda majburiy moliyaviy-diniy majburiyat bo'lgan **zakot** tizimi hamda kam daromadli aholini qo'llab-quvvatlovchi islomiy mikromoliya mahsulotlari qashshoqlikni yumshatishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

### **2. Sharq va G'arb mutafakkirlari qarashlarida iqtisodiy menejment.**

O'rta Osiyo va Sharq mutafakkirlari (**Najmiddin Kubro, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy**) asarlaridagi tijorat odobi va mulkdorlik san'atiga oid g'oyalar milliy dunyoqarashimiz poydevoridir.

**Alisher Navoiy** ijodida halol mehnat va shaffof savdo ulug'lanib, nafsni tiyish va qanoat moli yuksak baholanadi [2]:

*Hirsdin kechgil, ul g'amedurkim,  
Haddu g'oyat anga emas paydo.  
Tut qanoatkim, ul erur mole,  
Ki, nihoyat anga emas paydo.*

**Amir Temur va Adam Smit qiyosiy tahlili:** XVIII asrda ingliz iqtisodchisi **Adam Smit** soliqlarni daromadga mutanosib yig'ish va soliq bazasini kengaytirish tamoyillarini fanga kiritgan bo'lsa [8], **Sohibqiron Amir Temur** ushbu adolatli soliq siyosatini hamda strategik boshqaruv (xodimlarni rag'batlantirish, vazifalarni to'g'ri taqsimlash) mexanizmlarini undan bir necha asr avval o'z davlatchiligida muvaffaqiyatli qo'llagan.

### **3. Zamonaviy ta'lim tizimida iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirish.**

Iqtisodiy tafakkurga ega shaxs resurslarni oqilona taqsimlaydi va bozor konyunkturasini to'g'ri tahlil qila oladi. Shu sababli yosh avlodga **«Beshikdan to qabrgacha ilm izla»** naqli asosida uzluksiz iqtisodiy bilim berish global zaruriyatsidir. Masalan, **AQSh** ta'lim tizimida maktab yoshidanoq kompyuter simulyatsiyalari va amaliy startaplar orqali bo'lajak tadbirkorlarni tayyorlash amaliyoti keng yo'lga qo'yilgan [10].

### TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda iqtisodiy bilimlarning transformatsiyasi va ularni yosh avlodga yetkazish an'analari uzoq o'tmish hamda boy tarixiy ildizlarga ega [3]. Xususan, "Avesto" ta'limotlari, **"Qur'oni Karim"** oyatlari va Hadisi shariflarda ilgari surilgan iqtisodiy-axloqiy qadriyatlar bugungi kunda ham o'zining konseptual ahamiyati va metodologik mazmunini saqlab kelmoqda.

"Avesto"da insoniyatning dehqonchilik, chorvachilik va bog'dorchilik bilan mashg'ul bo'lishi oliy fazilat sifatida e'tirof etiladi. Ayni paytda, hayot manbai bo'lgan yer, suv va havoni bulg'ash hamda tabiatga ozor yetkazish kechirilmas gunoh ekanligi ta'kidlanadi [3].

**"Qur'oni Karim"** oyatlari va muborak hadislarda ham iqtisodiy munosabatlarga alohida e'tibor qaratilgan. Unda savdo-sotiqni halol yuritish, birovning haqqidan qo'rqish, kishilarni aldamaslik va sudxo'rlikdan tiyilish qat'iy talab etiladi. O'zganing mulkiga xiyonat qilish, birovga hasad ko'zi bilan qarash, yolg'onchilik, o'g'rilik va mehnatsiz daromad orttirish kabi illatlar nafaqat ijtimoiy jinoyat, balki og'ir gunoh sifatida qoralanadi.

Shuningdek, qarz munosabatlari, meros taqsimoti, yetim-yesirlarga nisbatan muruvvat ko'rsatish va xayr-ehson qilish kabi masalalar, qolaversa, soliq turlari hamda miqdoriga oid tushunchalar ham ulkan ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga egadir. Islom ta'limotida tejamkorlikka alohida urg'u berilib, isrofgarchilik keskin qoralanadi. Bu borada: "Yenglar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofgarchilikka yo'l qo'ymanglar", — deya marhamat qilinishi iqtisodiy barqarorlik va ma'naviy poklikning bosh mezoni hisoblanadi.

Zamonaviy innovatsion ta'lim tizimida iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilayotgan Islom moliyasi — bevosita shariat tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi o'ziga xos moliya tizimidir. Zero, Islom dini nafaqat bandaning Yaratganga ibodatini, balki inson hayotining barcha jabhalarini, xususan, iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish hamda mavjud muammolarni adolatli hal etish ilmini ham o'rgatadi. Shunga qaramay, mazkur tizimning o'ziga xos qat'iy talablari va mezonlari mavjud. Ushbu tizimning fundamental tamoyillaridan biri ribo (sudxo'rlik, foiz) hamda g'arar (shartnomadagi noaniqlik va asossiz tavakkalchilik)ning qat'iyan taqiqlanganidir.

Islom moliyasi — jamiyatdagi iqtisodiy jarayonlar hamda insonlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni shariatning to'rt asosi: **Qur'oni Karim**, Sunnat (Hadisi sharif), Ijmo va Qiyosga tayangan holda o'rganuvchi fandir. Mazkur moliya tizimi pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida islom huquqi (fiqh) qoidalariga to'liq muvofiq keluvchi iqtisodiy munosabatlar majmuasini o'z ichiga oladi.

Xususan, Islom iqtisodiyotida qarz berish yoki olish evaziga ustama (foyda) ko'rish qat'iyan man etilgan bo'lib, barcha moliyaviy operatsiyalar bevosita real iqtisodiy faoliyatga tayanishi lozim. Shuningdek, inson salomatligi va ma'naviyatiga zarar yetkazuvchi sohalarni, jumladan, qimor o'yinlari, alkogol va tamaki mahsulotlari savdosi kabilarni moliyalashtirishga ruxsat berilmaydi. Shu sababli Islom banklari nafaqat iqtisodiy foyda ko'rish, balki jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Qolaversa, Islom iqtisodiyotining tamoyillari tabiatan ijtimoiy adolat va tenglikni qaror toptirishga xizmat qiladi. Bunga misol tariqasida Islom banklari tomonidan amalga oshiriladigan yillik zakot to'lovlarini keltirish mumkin. Mazkur mablag'lar Qur'oni Karimda belgilangan ko'rsatmalar asosida muhtoj qatlamlarga va maxsus ijtimoiy kanallarga yo'naltirilib, jamiyatda qashshoqlikni yumshatishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Zakot — bankning sof daromadi hamda aktivlaridan ma'lum miqdorda ajratiladigan va har yili to'lanishi majburiy bo'lgan moliyaviy-diniy majburiyatsidir. Bundan tashqari, mikromoliya mahsulotlari kam daromadli aholi qatlamini moliyalashtirish orqali jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi. Islom banklarining ijtimoiy mas'uliyati — bu ularning diniy, iqtisodiy va axloqiy majburiyatlar doirasida amalga oshiriladigan barcha faoliyat turlarini qamrab oladi. Boshqacha aytganda, islomiy moliya muassasalari jamiyat oldida o'z xizmatlarini to'liq shariat tamoyillari asosida ko'rsatish, barcha amaliyot va biznes jarayonlarida islom huquqi qoidalariga qat'iy rioya qilish uchun mas'uldirlar; bu esa ularning nafaqat iqtisodiy, balki yuksak



diniy majburiyati bilan uzviy bog'liqdir. Iqtisodiy mas'uliyat nuqtai nazaridan Islom banklari barqaror va moliyaviy jihatdan samarali biznes yuritishi, aksiyadorlar hamda omonatchilarning pul mablag'larini nafaqat muhofaza qilishi, balki ularni rivojlantirishi lozim. Axloqiy javobgarlik esa Islom banklarining qonunlarda to'g'ridan-to'g'ri belgilanmagan bo'lsa-da, jamiyatdagi diniy qadriyatlar va milliy urf-odatlariga chuqur hurmat bilan yondashish hamda ularni asrab-avaylash borasidagi ma'naviy majburiyatlarini anglatadi.

O'rta Osiyo va Sharqning buyuk mutafakkirlari — Najmiddin Kubro, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy va Abdulla Qodiriy kabi siymolarning boy ijodiy merosi milliy iqtisodiy tafakkurimiz rivojida muhim o'rin tutadi. Ularning asarlarida ilgari surilgan umumbashariy g'oyalar, komil inson barkamolligiga qaratilgan o'g'itlar, shuningdek, tijorat odobi, mulkdorlik san'ati va hunarmandchilik sirlariga doir qarashlar yaxlit milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimining shakllanishiga xizmat qilgan. Ushbu ma'naviy xazina xalqimizning iqtisodiy ongi va dunyoqarashini boyitishda bugungi kunda ham mustahkam poydevor vazifasini bajarmoqda.

Xususan, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodida halol mehnat, tijorat va shaffof savdo amallari yuksak qadrlanib, ulug'lanadi; aksincha, tovlamachilik, tekinga boylik orttirish va chayqovchilik kabi illatlar qat'iy qoralanadi. Hazrat Navoiy o'z asarlarida insoniyatni har doim nafsni tiyishga, boriga baraka topib, qanoat bilan yashashga hamda halol rizq ortidan borishga chorlaydi [2]:

*Hirsdin kechgil, ul g'amedurkim,  
Haddu g'oyat anga emas paydo.  
Tut qanoatkim, ul erur mole  
Ki, nihoyat anga emas paydo.*

Ya'ni: Hirsu havasdan kech, chunki u behad va oxiri yo'q g'amdir. Qanoatni mahkam tutki, u nihoyasi yo'q moldir, deyiladi.

XVIII asrda yashab ijod qilgan ingliz iqtisodchisi Adam Smit soliqqa tortishning adolatli tamoyillarini fanga kiritar ekan, soliqlarni fuqarolar daromadiga mutanosib ravishda taqsimlash, ularni qulay vaqtda undirish hamda soliq tushumlarini og'ir yuk orqali emas, balki soliq bazasini kengaytirish hisobiga oshirish lozimligini ta'kidlagan edi [8]. Qizig'i shundaki, buyuk sohibqiron Amir Temur bu qoidalarni Smitdan bir necha asr avval o'zining davlatchilik siyosatida amalda qo'llagan. Bugungi kunda Temurning davlat boshqaruviga oid o'g'itlari, xususan, xodimlarda mehnatga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otish, kengash va majlislarni samarali tashkil etish, vazifa hamda mas'uliyatni to'g'ri taqsimlash san'ati zamonaviy menejmentning poydevor tamoyillari sifatida talqin qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo'liga qadam qo'ygach, jamiyatda iqtisodiy bilim va madaniyatning o'zni beqiyos darajada ortdi. Zero, iqtisodiy tafakkurga ega bo'lgan inson o'z xarajatlarini oldindan aniq rejalashtiradi, tadbirkorlik tamoyillari asosida ish yuritadi hamda biznes yo'nalishini to'g'ri tanlay oladi. Bunday kishilar bozor konyunkturasi tahlilidan kelib chiqib, qachon, qayerda va qancha mahsulot ishlab chiqarishni puxta biladilar. Pirovard natijada, bu kabi oqilona yondashuv mamlakat taraqqiyoti, jamiyat barqarorligi va har bir oila farovonligining mustahkam kafolatiga aylanadi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida bo'lajak tadbirkorlarni tayyorlashga qaratilgan ko'plab maxsus o'quv dasturlari mavjud. Ushbu dasturlar kompyuter simulyatsiyalari, zamonaviy darsliklar va interaktiv amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga qamrab olgan [10]. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalarning ota-onalari va pedagoglar ko'magida o'zlarining ilk startap (kompaniya)larini tashkil etib, mustaqil ravishda savdo-sotiq jarayonlarida ishtirok etishlarini kuzatish kishida katta qiziqish uyg'otadi.

Xalqimizning "Beshikdan to qabrgacha ilm izla" degan hikmatli naqli uzluksiz ta'limning muhim ahamiyatini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy taraqqiyot sari dadil odimlayotgan mamlakatimizda yosh avlodga iqtisodiy bilim berish jarayonini tizimli tashkil etish hamda ushbu ustuvor vazifalarni amaliyotga joriy etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunning eng muhim va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridan biri hisoblanadi.

Iqtisodiyot — insonlarning kundalik hayotdagi qarorlarini, ya'ni ularning mehnat faoliyati ko'lami, iste'mol ehtiyojlari, jamg'arma miqdori hamda mavjud mablag'larni qanday taqsimlashini o'rganuvchi fandir [6]. Shuningdek, u bozor munosabatlari jarayonida subyektlarning o'zaro aloqalarini ham tahlil qiladi. Mazkur

soha jamiyatning barcha a'zolari uchun farovon hayot kechirish usul va vositalarini tadqiq etuvchi hamda ularni amaliyotga tatbiq etuvchi muhim tizim hisoblanadi [6]. Iqtisodiyotning oliy maqsadi — jamiyatning har bir a'zosi uchun munosib turmush darajasini yaratishdir. Ana shu bosh maqsaddan kelib chiqib, bir qator strategik vazifalar belgilanadi: barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, aholini ish bilan ta'minlash va boshqalar. Iqtisodiyot fani an'anaviy ravishda ikki asosiy tarmoqqa bo'linadi: makroiqtisodiyot va mikroiktisodiyot [6]. Bunda "makro" (yunoncha *makros*) — yirik, yaxlit tizim ma'nosini, "mikro" (yunoncha *mikros*) — kichik, alohida element ma'nosini anglatadi.

"Makroiqtisodiyot va mikroiktisodiyot" fanining asosiy vazifasi talabalarda iqtisodiy tafakkur va dunyoqarashni rivojlantirish, milliy iqtisodiyotning mikro va makro darajadagi tarkibiy tuzilmalarini tavsiflovchi tayanch tushunchalar hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati va mamlakat iqtisodiy barqarorligini aks ettiruvchi fundamental ko'rsatkichlar haqidagi bilimlarni shakllantirish, shu asosda nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir.

"Makroiqtisodiyot" — iqtisodiy jarayonlarni yaxlit bir butunlikda, ya'ni umumjamiyat miqyosidagi muammolar (yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarish, milliy daromad, ishsizlik va inflyatsiya) darajasida tadqiq etuvchi hamda ularni tizimli hal qilish yo'llarini izlovchi sohadir. Ayni paytda, zamonaviy iqtisodiy sharoitda turli mulkchilik shaklidagi korxona va firmalarning xo'jalik yuritish strategiyasini, ularning bozor muhitidagi iqtisodiy xulq-atvorini hamda cheklangan resurslardan samarali va oqilona foydalanish asosida yuqori natijalarga erishish mexanizmlarini o'rgatuvchi bilimlarga talab izchil ortib bormoqda.

Mazkur masalalarni samarali hal etishda "Mikroiqtisodiyot" fani muhim ahamiyatga ega. Fanning asosiy maqsadi talabalarga bozor iqtisodiyoti sharoitida amal qiluvchi obyektiv iqtisodiy qonuniyatlar hamda bozor mexanizmining nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'rgatishdan iboratdir. Shu bilan birga, mazkur fan jamiyatda resurslarning cheklanganligi sharoitida inson ehtiyojlarini imkon qadar to'liq qondirish zaruriyati yuzasidan keng iqtisodiy tafakkurni shakllantirish hamda olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

"Mikroiqtisodiyot" (yunoncha "mikros" — kichik) iqtisodiyot fanining tarkibiy qismi bo'lib, u alohida subyektlar — uy xo'jaliklari va firmalarning cheklangan resurslarni taqsimlash bo'yicha qabul qiladigan qarorlarini hamda ularning bozor munosabatlaridagi xulq-atvorini o'rganadi. Mikroiktisodiyotning asosiy maqsadi — tovar va xizmatlarning nisbiy narxlarini shakllantiruvchi bozor mexanizmlarini tahlil qilish hamda cheklangan resurslarni muqobil variantlar (alternativlar) orasida samarali taqsimlash qonuniyatlarini tadqiq etishdir [6]. Mikroiktisodiyot quyi darajadagi iqtisodiy qarorlar qanday tamoyillar asosida va nima sababdan qabul qilinishini ilmiy jihatdan tahlil qilib beradi [6].

Adam Smitning talqiniga ko'ra, mehnat taqsimoti milliy mahsulot yaratish jarayonida insonlar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlovchi eng samarali shakldir [8]. Ixtisoslashuv natijasida ishchilarning mehnat ko'nikmalari va chaqqonligi ortadi, bir faoliyat turidan boshqasiga o'tish zarurati qolmagani sababli vaqt sezilarli darajada tejaladi. Shuningdek, tor doiradagi ixtisoslashuv mehnat jarayonini takomillashtirish va yangi ixtirolar yaratish uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Shu bilan birga, Smit mehnat taqsimotining salbiy jihatlarini ham inkor etmagan. U manufaktura va rivojlanib borayotgan mashina sanoatidagi bir xil (monoton) mehnat insonni ruhan va jismonan toliqtirishi, uning dunyoqarashini cheklab qo'yishi kabi salbiy oqibatlarni tan oladi. Bundan tashqari, Smit tovarlar olamida pulning uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot natijasida **stixiyali** ravishda umumiy ekvivalent sifatida ajralib chiqish jarayonini ilmiy asoslab bergan [6].

Innovatsion ta'lim muhitlari zamonaviy pedagogikaning markaziy masalasi bo'lib, ular o'quv jarayonini talaba markazli, texnologik va ijodiy jihatdan boyitilgan tizim sifatida talqin etadi. Adabiyotlar tahliliga ko'ra, ushbu muhitlar o'quvchilarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Xususan, 210 ta tadqiqot va siyosat hujjatlarining tizimli sharhi innovatsion muhitning o'quv samaradorligini oshirishdagi hal qiluvchi o'rnini tasdiqlaydi.

Texnologiyalar bilan integratsiyalashgan muhitlar o'qituvchilarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarib, interaktiv va moslashuvchan o'qitish tizimini ta'minlaydi [13]. Pedagogik adabiyotlarda innovatsion muhitlar talabaga yo'naltirilgan yondashuv, ta'lim makonini transformatsiya qilish va inkluzivlik tamoyillarini qamrab oluvchi ko'p o'lchovli tizim sifatida ta'riflanadi. Shuningdek, ilmiy manbalarda innovatsion muhit

ijtimoiy-psixologik jihatdan boyitilgan platforma sifatida talqin etilib, u o'quvchilarda iqtisodiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun mustahkam asos yaratadi [14].

